

“TOHIR VA ZUHRA BO TASVIR” DOSTONI QO’LYOZMA MATNI VA UNING
TAHLILI

M.Ergashova

QDPI dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhtasham badiiy qadriyatlaridan biri hisoblangan dostonlarning syujet asoslari qadimiyligi, baxshilar repertuarida xilma-xil variant rang-barang epik talqinga egaligi bilan ajralib turishi va “Tohir va Zuhra” dostoni qo‘lyozmasi matni tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: epik tafakkuri, o‘zbek eposi, syujet, genetik asoslari, oltoy tillari oilasi, etnos, mifologiya, qo‘lyozma matn, tahlil.

Folklorshunoslikda deyarli o‘rganilmagan kitobiy dostonlarning o‘zbek variantlarini uning turkiy versiyalari bilan qiyosan tahlil qilish natijasida uning o‘ziga xos milliy talqinlarini aniqlash hamda an’anaviy syujetlarning tarixiy-genetik asoslarini yoritish epik tafakkur tadrijini yoritishga asos bo‘ladi. Dostonchilik an‘analari va epik ijodiyotning o‘ziga xos tabiatini belgilaydigan variantlilik hodisasining qonuniyatlarini ochish maqsadida o‘zbek folklorshunosligida “Alpomish”, “Malika ayyor”, “Sohibqiron”, “Kelinoy”, “Nurali” kabi dostonlarning o‘zbek baxshilari repertuaridagi variantlari qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.(1) Mustaqillik yillarida ma’naviy-madaniy meros, jumladan, xalq dostonlarini tadqiq va targ‘ib etishga berilgan ulkan e‘tiborning mahsuli o‘laroq “Alpomish” dostoni yaratilganligining ming yilligi munosabati bilan xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi.(2)

Bugungi kunda dunyo eposshunosligida epik an‘ananing kelib chiqishini mifologik eposga bog‘lash hamda epik she‘riyat shakllanishini qadimgi shomon poeziyasining sintezi sifatida talqin qilishdan iborat kontseptsiyalar ustuvorlik qilmoqda. Ana shu nazariy qarashlar asosida epik ijodiyotga mansub badiiy matnlarni sistemalashtirish va tizimli tahlil qilish orqali dunyo xalqlari eposining milliy etnopoetik konstantalari korpusini yaratish borasida izchil ish olib borilmoqda. Mamlakatimizda uzoq asrlar davomida shakllanib, badiiy tafakkur evolyutsiyasi natijasida rivojlanib kelgan dostonchilik maktablarining har biri o‘ziga xos ijrochilik an‘analari va ijodiy muhitiga ega bo‘lganligi, baxshilarning yuksak badihago‘ylik iqtidori va poetik mahorati tufayli dostonlarning variantlashuvi jarayoni jadal kechgan. Dostonchilik an‘analari va epik ijodiyotning o‘ziga xos tabiatini belgilaydigan variantlilik hodisasining qonuniyatlarini ochish maqsadida o‘zbek folklorshunosligida “Alpomish”, “Malika ayyor”, “Sohibqiron”, “Kelinoy”, “Nurali” kabi dostonlarning o‘zbek baxshilari repertuaridagi variantlari qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida taraqqiy etayotgan Yangi O‘zbekistonda xalq ijodini tadqiq va targ‘ib etish, ayniqsa, baxshichilik san‘atini taraqqiy ettirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «agar biz bu noyob san‘atni saqlab qolish uchun bugun barchamiz birgalikda

harakat qilmasak, afsuski, kech bo'ladi, kelgusi avlodlar, tarix bizni kechirmaydi». (3) Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshqa turkiy xalqlar singari o'zbek xalqi orasida ham doston, qissa va ertak sifatida juda keng ko'lamda tarqalgan epik syujetning mukammal badiiy ifodasi hisoblangan "Tohir va Zuhra" dostonini fundamental tadqiq etish ham folklorshunoslikning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Atoqli olimlar V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning qayd etishlaricha, «Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan suluv» dostoni bilan mushtarak negizga ega bo'lgan "Tohir va Zuhra" dostoni Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan ham kuylangan bo'lib, ammo bu variant yozib olinmagan. SHuning uchun ham "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobining mualliflari og'zaki va adabiy an'analarni o'zida mujassamlashtirgan epik asarlardan biri hisoblangan "Tohir va Zuhra" dostonining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda folklorshunos Buyuk Karimov tomonidan Zabonbibi Sarimsoqovadan yozib olingan "Tohir va Zuhra" ertagi syujetiga asoslanib, tadqiqot olib borishgan. (4) Taniqli o'zbek folklorshunos olimlari T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlarning fikricha, «og'zaki va yozma adabiyotning juda murakkab formalari, turli-tuman adabiy traditsiyalarning o'ziga xos ravishda juda ham o'rinli tarzda chatishib ketishi» natijasida yuzaga kelgan "Tohir va Zuhra" dostoni kitobiy eposning ishqiy-sarguzasht tipiga mansub epik asarlardan biri bo'lib, uning yaratilish davri XVII-XIX asrlarni o'z ichiga oladi. Doston asosan jonli og'zaki ijro hamda qo'lyozma yoki toshbosma nusxa orqali ommalashgan bo'lib, uning og'zaki variantlari Islom shoir Nazar o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Zohir shoir Qo'chqor o'g'li, Qora baxshi Umirovdan yozib olingan. Bu variantlar an'anaviy syujetni o'ziga xos tarzda badiiy talqin qilishi, obrazlar tizimi va epik motivlarning originalligi, baxshi mansub bo'lgan dostonchilik maktabi ijodiy uslubining dostonida aks etishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Adabiyotimiz tarixida Tohir va Zuhra dostoni muhim o'rin tutadi. Xalqimizning bu asarni qanchalar ardoqlab, qiziqish bilan tinglagan va o'qiganini turli hududlarda turlicha variantlar bilan tarqalgani ham isbotlab turadi. Xususan, so'z yuritmoqchi bolgan manbaamiz ana shunday qimmatli manbaalardan biridir.

Qo'lyozma 1913-yilda litografik usulda bosilgan. Bizgacha ancha sifatsiz holda yetib kelgan. Ya'ni, ba'zi varaqlari yo'qolgan, ba'zilariga jiddiy shikast yetgan.

Doston "Tohir va Zuhra bo tasvir" deb nomlangan. Muqova qismiga "Tohir va Zuhra hikoyasi bo tasvir" deb forschada, nasta'liq yozuvida yozilgan. Xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblangan bu doston aslida 48 betdan iborat bo'lgan bolsa, bizgacha uning 38 beti yetib kelgan. 19, 20, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 45, 46-jami 10 beti yo'qolgan. 32-41-42-betlari yirtilib, 4 5 qatorning boshki qismi o'qib bo'lmas holga kelgan. Qog'ozining rangi sariq, chetlari yirtilib, titilgan.

Asar garchi basmala bilan boshlangan bolsa-da, hamd va na't qismlari aks etmagan. Voqealar barcha doston variantlari kabi shoh va vazirining befarzandligi, zurriyot talabida qilgan yaxshiliklari-yu, amallari va sirli tarzda bir darveshga yo'liqishlari tasviri bilan boshlanadi. Ko'plab manbaalarda darvesh saroyga o'zi kelgan bolsa, ushbu qo'lyozmada shoh va vazir qalandar qiyofasidagi darveshni go'zal bog'da uchratadilar.

Zohir Qo'chqor o'g'li va Mullanafas variantlarida vazirga ham keng o'rin berilib, uning tilidan ham baytlar keltirilgan bolsa, ushbu asarda vazir deyarli tilga olinmay, asosiy e'tibor shohga qaratiladi. Xalqimizda azaldan oila, sevgi, farzand kabi ramziy ifodalarini bildiruvchi olma asosiy detal qilib olingan. Barcha doston variantlarda bo'lgani kabi olmani shoh bilan vazirga darvesh beradi. Yana dostonga xos alohida detal sifatida qalamni misol qilishimiz mumkin. Darvesh qalamni shoh va vazirga bir muddat ushlatish orqali ularning ko'ngli dagi niyatlarini bilib oladi. Qalamni sehrlil vosita sifatida keltirish muallifning ijodiy yondashishi natijasi bo'lishi mumkin.

Darvesh shoh va vazirga olmani bo'lib berarkan Tohir va Zuhraning kelajagi haqida o'quvchiga bashorat bera turib, ular bilan taqdirdosh Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Rizvon va Qambar, Vomiq va Uzro, Darqa va Kalshoh kabi qahramonlarni tilga oladi.

Voqealar rivojidadagi farqli jihatlarni sanaydigan bolsak, avval Zuhraning ishq Tohirga tushganligi va dastlab Tohir bunga qarshi bo'lgani ham she'riy baytlar orqali keltirilganini aytish mumkin. Shunda Zuhra Xudoga nola qilib shunday deydi:

Man bechora qulingga rahm qilsang Xudoyo,
Ochuq yuzin ko'rmakka zor qilibsang Xudoyo,
Ishq o'tini Tohir ham ko'rsa ekan Xudoyo,
Oshiqning so'zini quloog'iga olmastur.
Zuhraning Xudoga nolasi yetib Tohir ham oshig'iga ushbu baytlarni aytadi:
Haqiqat yorsan Zuhrajon,
Zulfi dorsan Zuhrajon,
Sozni tutib o'ynashing,
Aqlarim olibdur.
Ishqing minan sharob ichibman,
Man jon sayrini kechibman.
Zuhra ruxlaring gulday,
Tohir anga bulbulday,
San qardoshsan, boshimda
Ishqing o'ti Zuhrajon.
Sabrim minan qarorim,
San olibsang Zuhrajon.

Qo'lyozmada she'riy misralarga juda keng o'rin berilgan. Dialoglar baytlardan tashkil topgan. Asosan, bandlar vazni 7 barmoqda yozilgan bo'lsa-da, orasida vazn talabida chetlanishlar uchray turadi.

Xullas, turkiy xalqlar kitobiy eposining mushtarak namunasi hisoblangan "Tohir va Zuhra" dostoni o'zbek, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird, uyg'ur, qrim-tatar, turk, qozoq, qoraqalpoq, gagauz, qo'miq va boshqa xalqlar folklorida mavjudligi aniqlandi. Ishqiy-sarguzasht xarakteridagi ushbu syujet asosida yaratilgan dostonlar uch tipga bo'lib tasnif qilindi: a) qorluq-chigil versiyasi; b) qipchoq versiyasi; v) o'g'uz versiyasi. "Tohir va Zuhra bo tasvir" dostoni matni adabiyotshunosligimizda tadqiq etilishi dolzarb qo'lyozmadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saidov M. «Malika ayyor» dostoni. – Tashkent: Fan, 1964. -126 b.; Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. – Tashkent: Fan, 1968. – 168 b.; Shodieva S.F. Ideyno-xudojestvennye osobennosti dastana «Saxibkiran» (opit sravnitel'nogo izucheniya razlichnix versiy eposa). AKD. – Tashkent, 1968; Kaxxorov A. Spetsificheskie osobennosti tsikla dastanov «Kelinoy» (na materialax Surxandarinskoy i Kashkadarinskoy oblastey). AKD. – Tashkent, 1971; Mamashukurov Q. «Nurali» turkum dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Filolog. fan. nom. diss. avtoreferati. – Tashkent, 1988. – 23 b.
2. «Alpomish» dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti xalqaro konferentsiya materiallari. – Termiz: «Fan», 1999. – 164 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik festivalida so'zlagan nutqi. – Termiz shahri, 2019 yil, 5 apreль.
4. Jirmunskiy V.V., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. – M.: OGIz, 1947. – S.294.